



ANDIJON VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

ANDIJON VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI



2024- yil
yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-maydagi PQ-5113-son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari" tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi.

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2024- yil yanvar-sentabr)

69,8



**Xizmatlar sohasidagi
korxona va
tashkilotlar
ulushi, % da**

8 343,9



**Aholi jon
boshiga
xizmatlar
hajmi, ming
so'mda**

74,4




**Xizmatlar sohasida
kichik tadbirkorlikning
ulushi, % da**




Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmat turlarini takror ko'rsatishni o'z ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriyadir. Bu tijorat, professional va iste'mol xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan mamlakatning iqtisodiy sektoridir.


Soni, birlikda




Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar
(1- oktabr holatiga ko'ra)



Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar
(yanvar-sentabr)



Soni, birlikda



Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari

(1-oktabr holatiga ko'ra)

63,6



2024- y.


Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soniga nisbatan ulushi, % da

2020- y.




56,4

Soni, birlikda



Soni, birlikda



Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari

(yanvar-sentabr)

2024- y.

64,8



Jami yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soniga nisbatan ulushi, % da




2020- y.

48,4


Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi ¹⁾

(yanvar-sentabr)



Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga xizmat turlarining qo'shgan hissasi

(2024- yil yanvar-sentabr)



¹⁾ Bu yerda va keyingi o'rinlarda 2020-2023- yillar uchun aniqlik kiritilgan ma'lumotlar keltirilgan


Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan norezidentlarga) ma'lum vaqt davomida ko'rsatiladigan xizmatlar qiymati (narxi)ni aks ettiradi.

Hududlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2024- yil yanvar-sentabr)


Hudud	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Ulushi, <i>% da</i>	O'sish sur'ati, <i>% da</i>
Viloyat bo'yicha jami	28 536,1	100,0	112,9
shahar va tumanlar:			
Andijon sh.	6 655,4	23,5	114,0
Xonobod sh.	456,9	1,6	113,8
Oltinko'l	799,0	2,9	112,3
Andijon	1 182,7	4,2	112,8
Baliqchi	1 028,3	3,7	112,9
Bo'ston	310,2	1,1	112,4
Buloqbo'shi	604,6	2,1	113,7
Jalaquduq	785,0	2,8	113,9
Izboskan	901,8	3,2	113,1
Ulug'nor	275,0	1,0	112,4
Qo'rg'ontepa	922,1	3,3	112,6
Asaka	1 319,6	4,7	112,0
Marhamat	743,5	2,7	112,7
Shahrixon	1 024,5	3,6	113,4
Paxtaobod	716,9	2,6	113,0
Xo'jaobod	950,8	3,4	113,3

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda


Aholi jon boshiga bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar-sentabr)



Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi (2024- yil yanvar-sentabr)




Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar-sentabr)



Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **74,4** foizni, shu jumladan, **54,1** foizini kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi tashkil etdi.

Hududlar kesimida xizmatlar sohasidagi kichik tadbirkorlik (2024- yil yanvar-sentabr)



Tarmoqlar tasniflagichining belgilangan xalqaro standartlariga o'tish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturining maqsadli parametrlariga kiritilgan xizmatlarning asosiy turlarini guruhlash, G dan S gacha bo'lgan bo'limlar bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq qism va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha Mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) statistik tasniflagichi (MST)ga ko'ra muvofiqlashtirildi.

Xizmatlar sohasining turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari

(2024- yil yanvar-sentabr)

Xizmat turlarining nomi	Hajmi, mlrd so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Xizmatlar – jami	28 536,1	100,0	112,9
shu jumladan:			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	1 012,7	3,5	115,5
Moliyaviy xizmatlar	4 040,1	14,2	115,3
Transport xizmatlari	3 961,3	13,9	114,6
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	3 770,9	13,2	115,5
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	8 046,9	28,2	111,2
Savdo xizmatlari	6 281,8	22,0	112,6
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	508,5	1,8	109,0
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	1 061,0	3,7	114,4
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	497,1	1,7	114,8
Ijara xizmatlari	413,1	1,4	104,6
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	597,7	2,1	110,4
Shaxsiy xizmatlar	1 036,7	3,6	111,3
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	174,9	0,6	108,6
Boshqa xizmatlar	904,3	3,2	116,8



Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari


Moliyaviy xizmatlar dinamikasi (yanvar-sentabr)

Hajmi, mlrd so'mda


O'sishi, % da



Hududlar kesimida moliyaviy xizmatlar (2024- yil yanvar-sentabr, mlrd so'mda)



Moliyaviy xizmatlar tarkibi (2024- yil yanvar-sentabr, % da)



Moliyaviy xizmatlar tarkibidagi sug'urta va nafaqa xizmatlaridan tashqari xizmatlarning ulushi, **2024- yil yanvar-sentabrida 83,4** foizni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlarning umumiy hajmida Andijon shahrining ulushi **30,6** foizni yoki **1 236,4** mlrd so'mni tashkil etdi.

2023- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan Andijon shahrida yuqori o'sish sur'ati **116,6** foizni tashkil etdi.

Savdo xizmatlari dinamikasi ¹⁾ (yanvar-sentabr)

2024- yil yanvar-sentabr oylarida chakana savdoning ulushi savdo xizmatlari umumiy hajmining deyarli to'rtidan uch qismini, ya'ni **75,4** foizni tashkil etdi.



■ Hajmi, mlrd so'mda
● O'sishi (kamayishi), % da



Hududlar kesimida savdo xizmatlari (2024- yil yanvar-sentabr)



Andijon viloyati	6 281,8	112,6%
Andijon shahri	2 139,9	111,8%
Xonobod shahri	119,0	113,2%
Oltinko'l	315,0	112,5%
Andijon	347,6	112,9%
Baliqchi	260,2	110,9%
Bo'ston	100,0	111,0%
Buloqbooshi	167,7	112,6%
Jalaquduq	234,5	112,3%
Izboskan	204,4	112,7%
Ulug'nor	55,7	112,0%
Qo'rg'ontepa	305,8	114,1%
Asaka	411,4	112,2%
Marhamat	201,0	112,4%
Shahrixon	267,9	112,8%
Paxtaobod	188,2	112,1%
Xo'jaobod	244,7	111,3%


¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd so'mda ♦ O'sish sur'ati, % da

Transport xizmatlari dinamikasi ¹⁾ (yanvar-sentabr)

Transport xizmatlari-ning umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlari ustunlik qiladi – **95,2** foiz.

Andijon shahrida transport xizmatlari hajmi **1 237,5** mlrd so'mni tashkil etgan. Mazkur hududda transport xizmatlari hajmining o'sish sur'ati **116,8** foizni tashkil etgan.



Hududlar kesimida transport xizmatlari (2024- yil yanvar-sentabr)

Andijon viloyati	3 961,3	114,6%
Andijon shahri	1 237,5	116,8%
Xonobod shahri	150,2	113,6%
Oltink'ol	128,5	112,0%
Andijon	154,7	112,9%
Baliqchi	301,3	114,3%
Bo'ston	48,9	114,2%
Buloqboshi	126,9	114,7%
Jalaquduq	145,2	114,9%
Izboskan	168,0	113,3%
Ulug'nor	47,7	111,9%
Qo'rg'ontepa	131,6	108,7%
Asaka	220,0	113,1%
Marhamat	156,2	115,4%
Shahrixon	165,7	114,6%
Paxtaobod	156,2	113,9%
Xo'jaobod	193,1	114,1%

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda


Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari dinamikasi ¹⁾ (yanvar-sentabr)



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmida eng katta hajmni telekommunikatsiya xizmatlari egallaydi. **2024- yilning yanvar-sentabr** oylaridagi ulushi **84,7 %** ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2024- yil yanvar-sentabr)



¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda


Hajmi, mlrd so'mda

Ta'lim sohasidagi xizmatlar dinamikasi

(yanvar-sentabr)

■ Hajmi, mlrd so'mda

● O'sishi, % da




2024-yil yanvar-sentabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **1 061,0** mlrd. so'mga yetdi. **O'tgan yilning mos davriga** nisbatan o'sish sur'ati **114,4 %** ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlar


(2024- yil yanvar-sentabr, mlrd so'mda)



Hududlar orasida ta'lim sohasidagi eng katta hajm Andijon shahriga to'g'ri keladi. **2024-yilning yanvar-sentabr** oylari davomida mazkur hududda ushbu turdagi xizmat hajmi **392,3** mlrd so'mga yetdi yoki ta'lim sohasidagi xizmatlar umumiy hajmining **42,1** foiziga yetdi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-sentabr)

2024- yil yanvar-sentabr oylarida sog'liqni saqlash xizmatlari hajmi **497,1** mlrd. so'mni yoki ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining **1,7 %** ini tashkil etdi.




Hududlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2024- yil yanvar-sentabr)

Andijon viloyati	497,1	114,8%
Andijon shahri	116,3	118,1%
Xonobod shahri	11,1	118,0%
Oltink'ol	9,3	119,6%
Andijon	15,1	115,4%
Baliqchi	13,1	115,2%
Bo'ston	5,9	115,0%
Buloqbo'shi	8,8	118,3%
Jalaquduq	20,2	125,3%
Izboskan	18,2	114,5%
Ulug'nor	6,3	115,1%
Qo'rg'ontepa	20,7	113,7%
Asaka	29,6	117,0%
Marhamat	18,0	115,7%
Shahrixon	20,3	117,7%
Paxtaobod	11,1	113,9%
Xo'jaobod	13,2	109,5%

■ Hajmi, mlrd so'mda ✦ O'sish sur'ati, % da

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar dinamikasi ¹⁾


(yanvar-sentabr)



Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarning umumiy hajmida shaxsiy yoki ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berish va boshqarish bo'yicha xizmatlar **87,8** foizni tashkil etdi.

Hududlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar

(2024- yil yanvar-sentabr)




¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd so'mda

🏠 O'sishi, % da

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar dinamikasi ¹⁾ (yanvar-sentabr)

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning jami xizmatlar hajmidagi ulushi **28,2 %** ni tashkil etdi. Ularning tarkibida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar ustunlik qildi – **98,9** foiz.



Hududlar kesimida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2024- yil yanvar-sentabr)



¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Ijara xizmatlari dinamikasi ¹⁾


(yanvar-sentabr)

Hajmi, mlrd so'mda

O'sishi (kamayishi), % da



Hududlar kesimida ijara xizmatlari (2024- yil yanvar-sentabr, mlrd so'mda)



2024- yilning yanvar-sentabr oylarida ijara xizmatlari hajmi **413,1** mlrd so'mga yetdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida yengil avtomobillar va yengil avtotransport vositalarining ijarasi bo'yicha xizmatlarning salmoqli qismi – **82,0** foizni tashkil etadi.

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari dinamikasi ¹⁾


(yanvar-sentabr)

■ Hajmi, mlrd so'mda
● O'sishi (kamayishi), % da



Boshqa shaxsiy foydalanish buyumlari va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar jami kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlarining **38,7** foizini tashkil etadi.

Hududlar kesimida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari (2024- yil yanvar-sentabr)




¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd so'mda

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-sentabr)



Hududlar kesimida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (2024- yil yanvar-sentabr, mlrd so'mda)



2024- yilning yanvar-sentabr oylarida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi **174,9** mlrd so'mga yetdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida Andijon shahrining ulushi **36,3** foizni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlar uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Transport xizmatlarining hajmi amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

Avtomobil transporti xizmatlariga temir yo'lda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yo'lovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish bo'yicha xizmatlar va ko'chish bo'yicha xizmatlar kiradi.

Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya'ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarning daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.

“Ta’lim” seksiyasi kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o'xshash boshqalar kiradi. **Ta'lim sohasidagi faoliyatni** amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (shartnoma) qiymati aks ettiriladi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

Ijara xizmatlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarini operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi bu – kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyabzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.